

YANGI O‘ZBEKISTON ISLOHOTLARIDA IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ QATLAMLARGA E‘TIBOR MASALALARI

Mamatov M. -

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti, dotsent,
falsafa fanlari doktori (DSc)*

Bugun Yangi O‘zbekistonni qurish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda hayotimiz gultoji bo‘lgan muhtarama onaxonlar, opa-singillarimiz, barcha xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tengligini ta‘minlash va ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jamiyatimizda ularga munosib mehnat va turmush sharoitlarini taqdim etish, ularni ish bilan ta‘minlash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Boy turmush tajribasiga ega bo‘lgan nuroniylarimizning munosib keksalik gashtini surishlari, jamiyatga faol aralashuvlari uchun barcha sharoitlar yaratilishi ko‘zda tutilgan. Yurtimiz bo‘ylab Otalar choyxonalari, oromgoh va sihatgohlar xizmat ko‘rsatishi, turli xil imtiyozlardan tashqari, ular uchun OAV orqali ham ko‘ngilochar, musiqiy, ma‘naviy- ma‘rifiy dasturlar ham tayyorlab uzatilmoqda. Qolaversa, o‘z kelayotgan avlod uchun ibrat bo‘ladigan, markaziy telekanallar orqali namoyish etilayotgan “Otlar so‘zi- aqlning ko‘zi”, ”Mahallada guring”, ”Dilkash davralar ” kabi qator ko‘rsatuvlarda ishtirok etayotgan keksalarimiz o‘z hayot maktablaridan saboqlar ulashmoqdalar. Bu esa xalqimizga xos qadriyatlarining avloddan avlodga uzatilishiga xizmat qiladi.

Umuman aytganda, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi vakillariga maslahat va ko‘mak berish, zaruriy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha ishlarni tizimli tarzda tashkil qilish, to‘siq bo‘layotgan kamchiliklarni bartaraf etish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Bizningcha, davlatimiz olib borayotgan ijtimoiy sohadagi islohotlardan ko‘zlangan maqsadlar yo‘lida to‘siq bo‘layotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi:

- avvalo, fuqarolarga davlat ijtimoiy yordamini olish uchun zarur bo‘ladigan hujjatlar sonini kamaytirish, vaqt sarfida tejamkorlikka erishish uchun sohada idoralararo elektron hamkorlikni joriy qilish hamda elektron tarzda hujjat almashish orqali aholiga qulaylik yaratish;

- aholi orasida haqiqatdan ehtiyojmand, ijtimoiy ko‘makka muhtoj oilalarni aniqlash, qabul qilingan me‘yorlar asosida muhtojlik darajasini haqqoniy baholash va qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali ijtimoiy adolat prinsiplarini qo‘llash;

-yildan yilga o‘zgarib boradigan ijtimoiy –iqtisodiy rivojlanishni, hududlarga xos shart sharoitlarni hisobga olgan holda, undagi davlat ko‘magiga muhtojlar tarkibining o‘zgarib borish dinamikasini tahlil qilish va baholash tizimini modernizatsiyalash;

-aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatuvchi vazirlik, idora va tashkilotlar uchun yagona, davlat ijtimoiy yordamini oluvchilarning doimiy yangilanib turadigan ma‘lumotlar bazasini joriy qilish va ularga aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarni bepul yoki imtiyoz asosida amalga oshirilishi bo‘yicha zaruriy sharoitlar yaratib berish;

-jamiyatimizda nogironligi bor shaxslarning qonuniy huquq va erkinliklarini, ularni boshqalardan ajratmasdan, teng asosda ta‘minlash, ijtimoiy jihatdan har tomonlama muhofaza qilish tizimini yo‘lga qo‘yish, kamsitish, boshqalar tomonidan huquqlarining buzilishi uchun javobgarlikni kuchaytirish;

-shuningdek, respublikamizda nogironligi bo‘lgan shaxslar huquq va erkinliklarini ta‘minlash sohasidagi milliy qonunchiligimizga dunyo miqyosida qabul qilingan xalqaro huquq mezonlarini uzluksiz joriy etib borish;

-mehnatga yoki muomalaga layoqatsizlikni tayinlovchi muassasalar ishida shaffoflik, tibbiy-mehnat ekspertizasining zamonaviy uslub va vositalarini amaliyotga keng joriy qilish, nogironlarga tezkor va sifatli xizmat ko‘rsatishda eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;

-hududlarda aholiga ko‘rsatilayotgan tez tibbiy xizmat sifat va samaradorligini oshirish, mavsumiy, yuqumli yoki xavf guruhidagi kasalliklarni erta aniqlash, oldini olish bo‘yicha

profilaktika ishlarini kuchaytirish, bolalar orasida tugʻma yoki irsiy kasalliklarning uchrash sabablarini oʻrganish, ularni barvaqt aniqlaydigan zamonaviy skrining tekshiruvlari boʻyicha tashviqot ishlarini kuchaytirish;

- mamlakatimizda tashkil etilgan “Muruvvat” va “Sahovat” uylarida davlat himoyasiga olingan shaxslarning yashash sharoitlarini tobora yaxshilash, ularga tibbiy-ijtimoiy xizmat koʻrsatish, reabilitatsiyasi tizimini takomillashtirish, moddiy – texnik bazasini mustahkamlash;

- nogironligi boʻlgan shaxslarni jamiyatda oʻz oʻrnini topishi, ijtimoiy foydali mehnat bilan shugʻullanishi uchun sharoitlar yaratish, munosib ish bilan taʼminlash, inklyuziv taʼlim sifatini oshirib borish;

- aholi uchun mehnatga layoqatsizlik yoki nogironlikni tayinlash tizimini soddalashtirish, nogironlikni belgilash va tibbiy-ijtimoiy xizmat koʻrsatuvchi maxsus idoralar ishida ochiqlik, shaffoflik va xolislik tamoyillari ustuvorligiga erishish.

Bugungi kunda hukumatimiz diqqat – eʼtiborida turgan keksa avlod, mehnat faxriylari, oʻzgaralar yordamiga muhtoj otaxon-onaxonlarni qoʻllab-quvvatlash maqsadida tuzilgan “Nuroni” jamiyati faoliyati uzluksiz taʼminlab borilmoqdaki, buning isboti oʻlaroq birgina oʻtgan yilda ushbu maqsad uchun 100 mlrd mablagʻ yoʻnaltirildi.

Bu mablagʻlar respublika boʻyicha oʻzgaralar yordamiga muhtoj nuroniylar turmush darajasini yuksaltirish, ularni ijtimoiy himoyalash tizimini tubdan yangilash, mavjud hamda Buxoro, Qarshi va Urganch shaharlarida yangidan bunyod etilgan nuroniylar sihatgohlarida 25 mingdan ziyod keksalarning dam olishlari moʻljallangan.

Maʼlumki, hozirgi kunda respublikada mehnat bilan band aholining 45 foizini ayollar tashkil etmoqda, bir yarim mingga yaqin xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida ishlab kelmoqdalar, boshqaruv tizimidagi ayol kadrlarning ulushi 33 foizga yetdi.

Bugun Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 150 nafar deputatidan 32 foizi, Senat va mahalliy kengashlar deputatlarining 25 foizdan oshigʻi xotin-qizlardan iborat boʻlib, Oʻzbekiston tarixida birinchi marta BMT talablariga mos holga keldi. Davlatimiz parlamentdagi ayol deputatlar soni boʻyicha 190 ta milliy parlamentlar orasida 128-oʻrindan 37-oʻringa koʻtarilgani bu sohadagi ijobiy yutuqlardan boʻldi. Oliy Majlis Senatiga ayol kishi saylanganidan soʻng esa palata rahbari ayol boʻlgan sanoqli 56 ta davlatdan biriga aylandi.

Mamlakatimizdagi oliy mukofot- “Oʻzbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlanganlarning 16 nafari ayollarni tashkil qiladi. Xotin-qizlarimiz orasida qator fan doktorlari, professor va akademiklar, Xalq artistlari, Xalq shoiri, Xalq oʻqituvchisi va boshqa unvon egalari bor va yil sayin ularning safi kengayib bormoqda.

Jamiyatimizda xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini mustahkamlash, gender tengligini taʼminlash, ayollarning barcha sohalada faolligiga erishish, ularga oʻz bilim va qobiliyatlarini namoyon qilish imkonini berish kabi dolzarb yoʻnalishlarda bir qator huquqiy-meʼyoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Ayniqsa, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonunlar va shu asosdagi “Zoʻrlilik ishlatishdan jabr koʻrgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qoʻshimcha chora –tadbirlar toʻgʻrisida” qaror bu yoʻnalishdagi muhim qadam boʻldi. Hozirda ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi ish yuritmoqda.

Keyingi yillarda Oila institutini mustahkamlash masalasi davlat siyosati darajasiga koʻtarilib, bu borada milliy konsepsiya qabul qilindi. “Oila” ilmiy-amaliy markazi faoliyati qayta tashkil etilib, hukumat tuzilmasi tarkibidan joy oldi.

Ayollarda uchraydigan kasalliklarni erta aniqlash va profilaktika qilish ishining jadallashgani sababli ayollar kasalliklari soni 2 barobarga, onalar oʻlimi uch martaga, bolalarning erta nobud boʻlish holati toʻrt martaga kamaydi.

Hududlarda ayollar muammolari boʻyicha manzilli ish olib borish maqsadida “Ayollar daftari” faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Bu daftarga kiritilgan ayollarni qiynayotgan muammolar oʻrganilib, 80 mingdan ortiq xotin-qizlarga yordam koʻrsatildi. Oʻttiz ikki mingdan ziyod ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar ish bilan taʼminlandi. Bu sohadagi ishlarni jadallashtirishda Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari tashkil etilib, “Har bir oila tadbirkor” dasturi doirasida 126 mingga yaqin

ayollarga imtiyozli kreditlar ajratildi. Qariyb 55 ming nafar xotin-qizlar kasb-hunarga o'qitilib, hunarmandchilik va kasanachilik faoliyatiga jalb qilindi.

Xotin-qizlarimizning intilishlarini rag'batlantirish, ularni munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash hamda ilmiy-madaniy saviyasini ko'tarish maqsadida qizlarimiz uchun alohida qabul kvotalari ajratiladigan bo'ldi. Shuningdek, ehtiyojmand oilalarning qizlari uchun oliy o'quv yurtlariga kirishda grantlar soni ikki barobarga ko'paytirildi. Ularga maxsus stipendiyalar ajratilishi ko'zda tutilmoqda.

Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha Respublika komissiyasi tuzilib, Oliy Majlis Senatida maxsus qo'mita tashkil etildi va bu borada amaliy ishlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishga doir strategiya ishlab chiqilgan bo'lib, undagi yo'nalishlar BMT ning 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladi. Ushbu strategiya to'qqiz yo'nalishni o'z ichiga oladi:

– ijtimoiy-siyosiy hayotda erkak va ayollarning ishtirok etishida teng imkoniyat va huquqlarni yaratish;

– ayol va erkaklarning iqtisodiyot, bandlik va mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilishda gender tengligini ta'minlash;

– butun hayot davomida barcha uchun adolatli va sifatli ta'limni ta'minlash;

– barcha xotin-qizlar uchun gender tengligini ta'minlash, zo'ravonlikdan himoyalash, odam savdosiga chek qo'yish;

– barcha erkak va ayollar uchun ijtimoiy himoya, sog'lom turmush tarzini ta'minlash;

– milliy gender statistikasini rivojlantirish;

– rejalashtirish va budjetlashtirishda gender masalasini inobatga olish;

– OAVda gender muammolarining keng yoritilishini ta'minlash;

– barcha uchun xavfsiz ekologik muhitni ta'minlash masalalariga xotin-qizlarni yanada kengroq jalb qilish.

Yuqorida tahlil qilingan gender tenglikka erishish strategiyasi milliy va umuminsoniy qadriyatlardan oziqlanadi. Oxirgi to'rt yilda ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi rolini oshirishga doir ikkita qonun, 6 ta farmon va 16 ta qarorlar qabul qilindi. Bu boradagi ishlarimizdan maqsad, mehribon onalarimiz, opa-singillarimizni hayotimizning haqiqiy gultoijiga aylantirishdir.

Yuqorida aytilgan aholining ma'lum qatlamlarini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish, sohada natijadorlikni yuksaltirish, tizimga samarali mexanizmlarni joriy etish bo'yicha yangi taklif va g'oyalarni bera oladigan ilmiy tadqiqot ishlarini ko'paytirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Ushbu yo'nalishda xalqimiz orasida sog'lom va faol turmush tarzini targ'ib qilish, tibbiy va ijtimoiy himoya ko'rsatuvchi muassasalar uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, bu turdagi xizmatlar uchun tibbiy jihoz va buyumlar, rehabilitatsiya vositalari ishlab chiqaradigan korxonalarni modernizatsiyalash kabi qator vazifalar yanada dolzarblashmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Sh.M. Mirziyoev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. -35 b.
2. Sh.M.Mirziyoev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2022. 440 b.
3. Q.Nazarov va boshqalar. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: Ma'naviyat nashriyoti, 2021. – B. 778.
4. Муминов А.Г. "Empaty in modern conditions: views, factors, manifestations" Журнал: Социальных Исследований, 2021, №4, P.13-23.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada milliy va diniy qadriyatlar orqali ma'naviy tarbiyani rivojlantirish jarayonlari tahlil etilgan. Uning jamiyat zamonaviy taraqqiyotidagi amaliy ahamiyati asoslab berilgan. ma'naviy tarbiyani rivoji nuqtai nazaridan fikrlar berilgan.

Kalit soʻzlar: milliy, diniy, tarbiyaviy, qadriyat, yoshlar, gʻoya, taraqqiyot, istiqbol, muammo, ilmiy tadqiqot.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматриваются процессы развития духовного воспитания посредством национальных и религиозных ценностей. Обосновывается его практическое значение в развитии современного общества с точки зрения совершенствования духовного воспитания.

Ключевые слова: национальные, религиозные, воспитательные ценности, молодежь, идея, прогресс, перспективы, проблема, научное исследование.

RESUME:

This article deals with the development of spiritual education through national and religious values. Its practical significance in the development of modern society from the point of view of improving spiritual education was substantiated.

Key words: national, religious, educational values, youth, idea, progress, prospects, problem, scientific research.